

O'QITUVCHI VA O'QUVCHI O'RTASIDAGI EMOTSIONAL MULOQOTNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Amirova Nodira Shamshiyevna

Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Psixologiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi emotsional muloqotning mohiyati, uning psixologik asoslari hamda ta'lim jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ijobiy emotsional muloqotning o'quvchilarning motivatsiyasi, o'z-o'zini baholash jarayoni va shaxsiy rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: emotsional muloqot, pedagogik aloqa, psixologik muhit, empatiya, motivatsiya, ijobiy emotsiya, o'quvchi shaxsi.

Kirish

Pedagogik jarayonda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot nafaqat bilim almashish jarayoni, balki chuqur psixologik munosabatdir. Ayniqsa, emotsional muloqot o'quvchi shaxsining rivojlanishida, uning o'qishga bo'lgan munosabati, o'z-o'zini baholashi va ruhiy holatining barqarorligida asosiy rol o'ynaydi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi tomonidan yaratilgan emotsional muhit o'quvchining ta'limga bo'lgan ichki motivatsiyasini shakllantiradi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samimiy, hurmatga asoslangan muloqot o'quvchining o'zini qadrlash hissini oshiradi, salbiy emotsional tajribalarning oldini oladi va o'quv jarayonining samaradorligini ta'minlaydi.

Inson o'zini qurshab olgan olam bilan o'zaro birgalikdagi harakati, odamlar o'rtasidagi ijtimoiy hayoti va ishlab chiqarish faoliyati jarayonida topadigan munosabatlar tizimi yuz beradi. Kishilar ish jarayonida tabiat bilangina emas, balki bir birlariga ham o'zaro ta'sir o'tkazadilar. Bir birlari bilan fikr almashib o'zaro muloqot qiladilar. Muloqot jarayoni pedagog kasbiy faoliyatining eng muhim qismi hisoblanib, bugungi kunda o'qituvchi pedagogik muloqot uslubini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham islohotlar olib borilmoqda. Ushbu islohotlar zahirida yosh avlodning tarbiyasi, ta'limi eng ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Buning yorqin misolini Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning "Bizni o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala - bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ko'proq his etadigan kim- yoshlar. Mayli yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lishsin. Lekin ayni payda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug'

zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida aks sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin.

Bunga nimaning hisobidan erishamiz? "Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan" - degan fikrlaridan anglashimiz mumkin. Ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog xodimlarning muloqot madaniyatini rivojlantirish ta'lim sifati va ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun xizmat qiladi.[1]

Pedagogik muloqot – bu o'qituvchining o'quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari faoliyatda o'zi uchun eng qulay bo'lgan psixologik muhitni vujudga keltirib, ijobiy ruhiy iqlimni yaratish uchun imkoniyat beruvchi kasbiy munosabatdir.[2] Bugungi pedagog kadrlar zimmasida buyuk ma'naviyatimizni tiklash va milliy ta'lim-tarbiya tizimi takomillashtirish, zamon talablari bilan uyg'unlashtirib, jahon andozalari darajasiga chiqarish kabi bir qator vazifalar turadi. Buning asosiy omillaridan biri esa pedagogik muloqot jarayonidir.

Ramziylikka ega ushbu metodning asosida pedagogik muloqotning eng keng tarqalgan uch turi yaqqol farqlanadi: avtoritar, demokratik va liberal.

Avtoritar uslubni qo'llovchi o'qituvchining muloqot metodlari sifatida buyruq, ko'rsatma berish va tanbeh xizmat qiladi. Avtoritar uslub - o'qituvchi guruhning faoliyat yo'nalishini, kim qayerda, nima ish bilan shug'ullanishini shaxsan o'zi belgilaydi. Hamkorlikning asosiy shakli - buyruq, ko'rsatma, instruktsiya, ogohlantirish.



Demokratik uslub - o'qituvchi faoliyat maqsadini har bir o'quvchi ongiga etkazishga, hammani faol ishtirok etishga undaydi. Faollikni rag'batlantiradi, tashabbusni quvvatlaydi. Muloqotning asosiy shakli - iltimos, maslahat, axborot tarzida bo'ladi.



Bunda o'qituvchi jamoa fikriga tayangan holda ish tutadi, faoliyat maqsadini barcha ta'lim oluvchiga etkazishga harakat qiladi. Bu uslubni qo'llovchi o'qituvchi barcha jamoa a'zolarining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ular o'rtasida vazifalarni teng bo'lishga harakat qiladi. O'qituvchi individual qobiliyat va qiziqishlarni hisobga olib vazifalarni optimal tarzda taqsimlashga undaydi.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi emotsional muloqot bu muloqot jarayonida ishtirokchilarning his-tuyg'ular, munosabatlar va emotsiyalar orqali bir-biriga psixologik ta'sir o'tkazish jarayonidir. Bunday muloqotda o'qituvchi o'quvchining ichki kechinmalarini, o'ziga bo'lgan ishonchini, motivatsiyasini va o'quv faoliyatiga nisbatan munosabatini shakllantiradi. Shuningdek, o'quvchining hissiy holati ta'lim samaradorligiga kuchli ta'sir ko'rsatadi: ijobiy emotsiyalar o'quv jarayonini faollashtirsa, salbiy emotsiyalar uni sekinlashtiradi yoki to'xtatadi.

Psixologik tadqiqotlarda (L.S. Vygotskiy, A.N. Leontev, K. Izard va boshqalar) emotsional muloqotning bola psixikasi rivojlanishidagi roli chuqur tahlil qilingan. Ularning fikricha, emotsiyalar inson faoliyatini yo'naltiruvchi, uni maqsad sari undovchi psixik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun esa o'qituvchining his-tuyg'ulari va munosabati o'ziga xos "model" sifatida xizmat qiladi. O'quvchi o'qituvchining ohangi, yuz ifodasi, xatti-harakatlari orqali o'zining o'quv faoliyatiga bo'lgan ishonchini shakllantiradi.

Emotsional muloqotda o'qituvchining shaxsiy fazilatlari, temperament tipi va kommunikativ kompetensiyasi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Masalan, ekstrovert o'qituvchilar o'quvchilar bilan ochiq, faol, samimiy muloqot o'rnatishga moyil bo'lsalar, introvert o'qituvchilar ko'proq kuzatuvchanlik, tahliliy yondashuv orqali emotsional bog'lanishni mustahkamlaydilar. Muhimi, o'qituvchi o'z emotsiyalarini boshqara olishi, stress holatida ham bolaga nisbatan xotirjam, ijobiy munosabatni saqlab qolishi kerak.

O'quvchining emotsional rivojlanishi ham o'qituvchi bilan muloqotda takomillashadi. Bolaning o'z hissiyotlarini ifoda etish, boshqarish va boshqalarning hissiyotini tushunish qobiliyati ijtimoiy-intellektual rivojlanish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun o'qituvchi har bir o'quvchining hissiy holatini nazorat qilib borishi, dars jarayonida stress, xavotir yoki zerikish holatlarini bartaraf etishga harakat qilishi zarur.

Amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi bilan ijobiy emotsional aloqada bo'lgan o'quvchilar:

- dars jarayonida faolroq ishtirok etadilar;
- o'z fikrini erkin ifoda etishadi;
- o'zlashtirish ko'rsatkichlari yuqori bo'ladi;
- ijtimoiy moslashuv darajasi yaxshilanadi;
- jamoada hamkorlik ruhida faol bo'lishadi.

Aksincha, o'qituvchining sovuq, tanqidiy yoki salbiy munosabati o'quvchida qo'rquv, ishonchsizlik, passivlikni kuchaytiradi. Bu esa, o'z navbatida, o'quv motivatsiyasining pasayishiga va ijtimoiy chetlashuvga olib keladi. Shu sababli, o'qituvchi emotsional muloqotda doimo ijobiy psixologik muhitni yaratishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ma'lumot manbai-Uza.uz sayti "Shavkat Mirziyoyev:Yoshlar tarbiyasi – eng muhim masalalardandir" ma'ruza matni.
2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2011 www.ziyouz.com kutubxonasi 118-bet.
3. Виготский, Л. С. *Мышление и речь*. — М.: Педагогика, 1982. — 352 с
4. Роджерс, К. *Взгляд на психотерапию. Становление человека*. — М.: Прогресс, 1994. — 480 с
5. Goleman, D. *Emotional Intelligence*. — New York: Bantam Books, 1995. — 358 p.